

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI SAVDO OPERATSIYALARI  
MONITORINGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI  
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yuritish tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tashqi savdo kontraktlari va inyoislar bo‘yicha ma‘lumotlarni Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga kiritish tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlar tashqi savdo kontraktlari va inyoislar bo‘yicha ma‘lumotlarni elektron shaklda elektron raqamli imzodan foydalangan holda, O‘zbekiston Respublikasining Interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga kiritadi.

2. Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga ushbu qaror talablaridan kelib chiqqan holda tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [2-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [3-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

7. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S.U. Umurzakov, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi raisi M.B. Azimov hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi Sh.D. Qudbiyev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 14-may,  
283-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-son [qaroriga](#)  
1-ILOVA

**Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish  
tartibi to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom) O‘zbekiston Respublikasining valyutani nazorat qiluvchi organlari va banklarida tashqi savdo operatsiyalari ustidan monitoring olib borish va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

barter kontrakti — pul mablag‘larida o‘zaro hisob-kitoblar qilmagan holda muayyan miqdordagi bir yoki bir necha turdagi tovarlarni (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) boshqasiga

almashtirish nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bilan norezidenti o‘rtasida tuzilgan kontrakt;

tashqi savdo kontraktlari — xo‘jalik yurituvchi subyektlarning eksport, import, eksport va import birja (yarmarka), eksport konsignatsiya, markazlashtirilgan eksport va import, barter, qayta ishlash kontraktlari, shuningdek tovarlarni respublika hududida yetkazib berish nazarda tutilgan eksport kontrakti;

tovarlar importi — tovarlarni ularni qaytarib olib chiqish majburiyatisiz O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

ishlar (xizmatlar) importi — xorijiy davlatning yuridik va jismoniy shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentiga ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish), ular bajarilishi (ko‘rsatilishi) joyidan qat’i nazar;

import qiluvchilar — yuridik shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar — tovarlar (ishlar va xizmatlar) importiga O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bilan tashqi savdo kelishuvlarini (kontrakt, invoys) tuzgan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari;

import kontrakti — tovarlar (ishlar va xizmatlar) importiga import qiluvchi bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti o‘rtasida tuzilgan kontrakt;

import birja (yarmarka) kontrakti — birja (yarmarka) savdolarida — tovarlar, ishlar va xizmatlar importiga import qiluvchi bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti o‘rtasida tuzilgan kontrakt;

qayta ishlash (respublikadan tashqarida) bo‘yicha kontrakt — O‘zbekiston tovarlarini bojxona hududidan qayta ishlash uchun tashqariga olib chiqish va ularning qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona hududiga olib kirish nazarda tutilgan import qiluvchi bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti o‘rtasida tuzilgan kontrakt;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar — O‘zbekiston Respublikasining eksport qiluvchilari va import qiluvchilari;

eksport qiluvchilar — yuridik shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar — tovarlar (ishlar va xizmatlar) eksportiga O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bilan tashqi savdo bitimlari (kontrakt, invoys) tuzgan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari;

eksport kontrakti — tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportiga eksport qiluvchi bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti o‘rtasida tuzilgan xo‘jalik shartnomasi, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq eksport kontraktlariga tenglashtirilgan kontraktlar (barter kontraktlaridan tashqari);

eksport birja (yarmarka) kontrakti — birja (yarmarka) savdolarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportiga eksport qiluvchi bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti o‘rtasida tuzilgan kontrakt;

qayta ishlash (respublika hududida) bo‘yicha kontrakt — tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash va ularni qayta ishlash mahsulotlari tarzida olib chiqish nazarda tutilgan eksport qiluvchi bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti o‘rtasida tuzilgan kontrakt;

ishlar (xizmatlar) eksporti — eksport qiluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga ishlar bajarilishi (xizmatlar ko‘rsatilishi), ular bajarilishi (ko‘rsatilishi) joyidan qat’i nazar;

tovarlar eksporti — agar qonunchilikda o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish;

markazlashtirilgan eksport kontrakti — hukumat nomidan yoki uning kafolati ostida davlat ehtiyojlari uchun zarur hajmlarda eksport tovarlarini yetkazib berishga tuzilgan kontrakt;

markazlashtirilgan import kontrakti — hukumat nomidan yoki uning kafolati ostida davlat ehtiyojlari uchun zarur hajmlarda import tovarlarini yetkazib berishga tuzilgan kontrakt;

eksport konsignatsiya kontrakti — konsignant va konsignator orasida tovarni konsignator orqali sotishga tuzilgan kontrakt, bunda konsignator omboriga tushgan tovarga egalik huquqi tovar xaridorga sotilishiga qadar konsignantga tegishli bo‘ladi;

respublika hududida eksport kontrakti — eksport qiluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanish nazarda tutilgan o‘zida ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berishga O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bilan xorijiy valyutada to‘g‘ridan to‘g‘ri tuzilgan kontrakt;

invoys (hisob-faktura) — xalqaro tijorat amaliyotida sotuvchi tomonidan xaridorga taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar ro‘yxati, ularning miqdori va xaridorga yetkazib berilgan narxlari, tovarlarning rasmiy xususiyatlari, yetkazib berish shartlari, jo‘natuvchi va oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan hujjat.

3. Tashqi savdo kontraktlari va invoyslar bo‘yicha ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq identifikatsiya raqamlari shakllantiriladi.

## **2-bob. Tashqi savdo kontraktlari va invoysga qo‘yiladigan eng kam talablar**

4. Tashqi savdo kontraktlarida quyidagi asosiy bo‘limlar va ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

a) Muqaddima. Kontraktning kirish qismida kontraktning tartib raqami, kontrakt tuzilgan joy va sana, yuridik shaxslarning to‘liq nomi, kontraktni tuzgan shaxslarning lavozimi, familiyasi va ismi. Agar shaxs kontraktni ishonchnoma asosida tuzsa, bu kontraktning muqaddimasida ko‘rsatiladi va ushbu ishonchnoma kontraktga ilova qilingan holda uning ajralmas qismi hisoblanadi;

b) Kontraktning mavzusi. Ushbu bo‘limda tovarlar, ishlar va xizmatlarning nomi, shuningdek bitishuv turi ko‘rsatiladi. Tovarining nomi bilan birgalikda uning tavsifi hamda miqdori va sifati bo‘yicha assortimenti ko‘rsatiladi.

Bunda tovarning umumiy qabul qilingan xalqaro standartlari, O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi tovar (xizmat) standartlari, shuningdek, xususiyati bo‘yicha uning tipi, modeli, markasi, navi, turi ham ko‘rsatilishi lozim.

Tovarining miqdori o‘lchovlarning metrik tizimida qabul qilingan xalqaro birliklarda ifodalanadi. O‘lchov birligini aniqlashga O‘zbekiston Respublikasida tasdiqlangan miqdorlarini belgilash va qo‘llash tartibiga muvofiq yo‘l qo‘yiladi.

Tovarining sifat tavsifi tovardan foydalanish uchun uning yaroqliligini aks ettiruvchi xossalar jamini belgilaydi. Shuningdek, TIF TN bo‘yicha tovarning kodiga havola ham zarur.

Mashinalar, asbob-uskunalar va texnologik liniyalarni yetkazib berish uchun kontraktida ularning yangiligi yoki ulardan foydalanganligi holati ko‘rsatiladi (foydalanilganlari uchun — eskirish foizi yoki foydalanish muddati);

v) Etkazib berishning bazis shartlari (“Inkoterm” xalqaro qoidalari bo‘yicha).

“Inkoterm”dan foydalanilganda yetkazib berish joyi (temir yo‘l stansiyasi, port, aeroport va boshqalarning nomi) ko‘rsatilishi kerak (qisqartirilgan so‘zlarning bosh harflari bilan birgalikda);

g) Tovarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish muddati yoki sanasi ko‘rsatiladi.

Tovar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish kontraktlariga muvofiq tovar yetkazib beruvchi — sotuvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi tomonidan shartlashilgan muddatlarda tovarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishning oxirgi muddati tushuniladi;

d) Kontraktning umumiy summasi, tovarning o‘lchov birligidagi narxi ko‘rsatiladi.

Tovarining o‘lchov birligi TIF TNdagi o‘lchov birligiga muvofiq belgilanadi.

Kontraktning umumiy summasi sotilayotgan tovar, ishlar va xizmatlarning qiymatini anglatadi. Ishlarni bajarishga va xizmatlar ko‘rsatishga kontraktni tuzish paytida kontrakt summasini belgilash imkoni bo‘lmagan o‘ziga xos kontraktlar tuzilgan taqdirda kontraktning umumiy summasi ko‘rsatilmaydi.

Etkazib beruvchilar tomonidan montaj va (yoki) ishga tushirish-sozlash ishlari amalga oshirilishini, ular tomonidan xodimlarni o‘qitish xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatilishini, royalti to‘lanishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar, qurilmalar, mexanizmlar, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar xarid qilishga (sotishga) tashqi savdo kontraktlari bo‘yicha kontraktlarda

(spetsifikatsiyalarda) bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar va royalti summasi alohida ko'rsatiladi;

e) To'lov shartlari. Kontraktdagi to'lov shartlarida valyuta, to'lov shakli va muddati belgilanadi. Tashqi savdo kontraktlari va invoyslarda to'lov valyutasi xorijiy valyutada ko'rsatiladi. Agar to'lov valyutasi kontrakt valyutasidan farq qilsa, u holda valyutani qayta hisoblab chiqish kursi va ushbu kursni aniqlash manbai ko'rsatiladi;

j) Tovarining kelib chiqishi, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish joyi. Kontraktda yetkazib berilayotgan tovar kelib chiqqan mamlakat va ishlab chiqaruvchi, shuningdek, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish joyi (mamlakati) ko'rsatiladi;

z) Tomonlarning javobgarligi. Qabul qilingan majburiyatlarning tomonlar tomonidan bajarilishini ta'minlovchi shartlar sifatida kontraktda, qoidaga ko'ra, kontrakt majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar to'laydigan penya va/yoki jarima shaklidagi javobgarlik nazarda tutiladi. Aybdor tomonga zarar ko'rgan tomonning talabiga ko'ra neustoyka to'lash majburiyati yuklanadi;

i) Tomonlarning rekvizitlari. Kontrakt matnida tomonlarning rekvizitlari ko'rsatiladi. Pochta rekvizitlari, manzil, bank va yuklab jo'natish rekvizitlari ko'rsatiladi;

k) Barter kontraktlarida import tovarlarni jadal yetkazib berishni yoki muqobil bank kafolatlari taqdim etishni nazarda tutuvchi shartlar majburiy tartibda hisobga olinadi;

l) Tashqi savdo kontraktining matni davlat tilida yoki xorijiy sherik tanlagan tilda bayon qilinishi kerak. Agar kontrakt matni boshqa tilda tuzilgan bo'lsa, kontrakt davlat tiliga yoki xorijiy sherikning tanlagan tiliga tarjima qilinishi va belgilangan tartibda tasdiqlanishi kerak.

5. Kontrakt shartlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi ma'lumotlar qo'shimcha bitim bilan qayd etilishi kerak hamda kontraktlar bilan bo'lgani singari tartibda Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga (keyingi o'rinlarda — TSOYEAT) kiritiladi.

Respublikaga tovarlarni olib kirish nazarda tutilgan kontraktlarga yoki invoyslarga qo'shimchalar kiritilib, ularga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar, xorijiy sheriklar va ularning rekvizitlari o'zgargan taqdirda, xo'jalik yurituvchi subyektlar ushbu qo'shimchalar haqidagi ma'lumotlar TSOYEATga kiritilgan sanadan boshlab o'n ish kuni mobaynida "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan bojxona yuk deklaratsiyalariga tegishli o'zgartirishlarni kiritish bo'yicha davlat bojxona xizmati organlariga murojaat etishlari shart.

6. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) eksport va import kontraktlarini tuzmasdan, invoyslar asosida eksport va import qilishga, shuningdek, ushbu invoyslar bo'yicha tijorat banklari orqali xorijiy sheriklar bilan o'zaro to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 3-noyabrdagi PQ-3351-son [qaroriga](#) ilovada keltirilgan tovarlarni eksport qilish hollari bundan mustasno.

Bunda eksport tovarlari, ishlar va xizmatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga oldindan to'lov 100 foiz tushgandan so'ng amalga oshirilishi, import tovarlari, ishlar va xizmatlar esa ular bo'yicha to'lovlar xorijiy sherikka o'tkazilmasdan avval amalga oshirilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlarning eksport va importi bo'yicha ma'lumotlar dalolatnoma tuzilgan kundan 1 kun ichida TSOYEATga kiritilishi lozim.

7. Invoyslarda quyidagi asosiy ma'lumotlar bo'lishi kerak:  
xo'jalik yurituvchi subyektning nomi va uning rekvizitlari;  
xorijiy sherikning nomi va uning rekvizitlari;  
invoys summasi;  
xo'jalik yurituvchi subyektning identifikatsiya raqami (STIR);  
tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi;  
tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning o'lchov birligi;  
tovarlar (ishlar, xizmatlar) miqdori;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi;  
tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib berish qiymati;  
“Inkoterm” bo‘yicha yetkazib berish shartlari;  
tashish turi.

Invoyslar xo‘jalik yurituvchi subyektning imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

8. Ushbu bob talablariga rioya etilishi uchun mas‘uliyat xo‘jalik yurituvchi subyektlarga yuklanadi.

### **3-bob. Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish tartibi**

9. Tashqi savdo operatsiyalari ustidan monitoring olib borish tartibi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuzilgan tashqi savdo kontraktlari va invoyslar bajarilishi ustidan zarur nazoratni ta‘minlash hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar, valyutani nazorat qiluvchi organlar, tovar-xomashyo birjasi, g‘aznachilik bo‘linmalari va tijorat banklari o‘rtasida ushbu Nizomga **2-ilovaga** muvofiq sxema bo‘yicha TSOYEAT orqali axborot ayirboshlash maqsadida joriy etiladi.

Bunda Yagona g‘azna hisobvarag‘i bilan qamrab olingan budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning tashqi savdo kontraktlari bo‘yicha to‘lovlarning amalga oshirilishi bo‘yicha tegishli ma‘lumot TSOYEATga g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan kiritiladi.

10. TSOYEAT real vaqt rejimida ishlaydi va unda ushbu Nizomga **3-ilovada** keltirilgan ma‘lumotlar aks ettiriladi.

11. Tijorat banklari:

avans to‘lovlar (oldindan haq to‘lash) amalga oshirilishida yoki import kontraktlar bo‘yicha akkreditiv ochishda;

avans to‘lovi (oldindan to‘langan haq) tushganligi, akkreditiv ochilganligi, bank kafolati rasmiylashtirilganligi, eksport kontraktini sug‘urtalash bo‘yicha polis berilganligi to‘g‘risidagi belgilangan tartibda berilgan hisob-kitob ma‘lumotnomalarini TSOYEATda rasmiylashtirishda TSOYEATdagi ma‘lumotlarni (shu jumladan, qonun hujjatlariga muvofiq tegishli vazirlik va idoralarning xulosasi mavjudligini) solishtiradilar, ushbu Nizomning **17-bandida** nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Bunda hisob-kitob ma‘lumotnomasi faqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-noyabrdagi PQ-3351-son **qaroriga** ilovada keltirilgan tovarlarni eksport qilishda rasmiylashtiriladi.

Kontrakt bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan TSOYEATga kiritilgan ma‘lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, banklar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu kontrakt bo‘yicha bank operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Bunda oldindan to‘lov kafolatlangan tovarlarni eksport qilish nazarda tutilgan kontraktlar va invoyslar bo‘yicha hisob-kitob ma‘lumotnomalari TSOYEATga tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar kiritilishi lozim.

Tashqi savdo kontraktlarining shartlariga, shu jumladan, tovarlar qismiga qo‘shimcha kelishuvlarsiz o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taqiqlanadi.

12. Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘larini oluvchilarning tashqi savdo operatsiyalari monitoringini amalga oshirish maqsadida g‘aznachilik bo‘linmalari to‘lovlarni amalga oshirishda yoki akkreditiv ochishda, TSOYEATdagi ma‘lumotlarni kontrakt shartlari bilan taqqoslaydi.

Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan TSOYEATga kiritilgan ma‘lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, g‘aznachilik bo‘linmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu kontrakt bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradilar.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-son qarorining 2-bandi “**v**” **kichik bandida** ko‘rsatilgan me‘zonlarga mos keluvchi strategik, budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalar, chet el grantlari va tashqi qarzarlar, davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat ahamiyatidagi loyihalar va davlat xaridlariga oid tashqi savdo kontraktlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi

huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkaziladi va ro‘yxatga olinadi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi hududiy boshqarmalarining bojxona postlari xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan TSOYEATga kiritilgan kontrakt (shu jumladan, invoys) ma‘lumotlarini “erkin muomalaga chiqarish (import)”, “eksport” bojxona rejimlaridagi bojxona yuk deklaratsiyasi ma‘lumotlari bilan, shuningdek, tijorat banklar tomonidan TSOYEATga kiritilgan hisob-kitob ma‘lumotnomasida ko‘rsatilgan valyuta miqdorini to‘lov kafolatlangan tovarlarning eksport qiymatiga nisbatan muvofiqligi yoki ortiqligi bilan solishtiradilar hamda farqlar mavjud bo‘lmaganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtiradilar, ushbu Nizomning **17-bandida** nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Bunda eksportga bojxona rasmiylashtiruvi, to‘lov kafolatlangan tovarlardan tashqari, TSOYEATga hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma‘lumotnomalarsiz amalga oshiriladi.

Hisob-kitob ma‘lumotnomasi asosida eksport qilinishi belgilangan tovarlar “eksport” bojxona rejimiga rasmiylashtirilayotganda tovarlarning umumiy faktura qiymati hisob-kitob ma‘lumotnomasida ko‘rsatilgan qiymatdan ortiq bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

15. Quyidagilarga:

to‘lov import qiluvchining o‘z valyuta mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan bir xo‘jalik yurituvchi subyektning ikki va undan ortiq import kontraktlari doirasida o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishga;

xo‘jalik yurituvchining ikki va undan ortiq eksport kontraktlari doirasida o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishga yo‘l qo‘yiladi.

16. Tashqi savdo kontrakti bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblar xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan, agar qonun hujjatlarida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi tijorat bankidagi hisob varag‘i orqali amalga oshirilishi mumkin.

17. Eksport qiluvchilar qonun hujjatlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, TSOYEATga inyoyslar to‘g‘risidagi tegishli ma‘lumotlar kiritilib, tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati to‘liq to‘langandan keyin va eksport qiluvchilarning O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobraqamlariga mablag‘lar tushgandan so‘ng tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) bojxona yuk deklaratsiyasi asosida Internet jahon axborot tarmog‘idagi onlayn do‘konlar orqali eksport qilishga haqli.

Bunda 5000 (besh ming) AQSh dollarigacha bo‘lgan tovarlar elektron tijorat orqali bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirmasdan, pochta xizmatlarini ko‘rsatish qoidalariga muvofiq realizatsiya qilinishi mumkin.

18. Eksport qiluvchilar TSOYEATga inyoyslar to‘g‘risidagi tegishli ma‘lumotlar kiritilib, tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati to‘liq to‘langandan keyin va eksport qiluvchilarning O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobraqamlariga mablag‘lar tushgandan so‘ng tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) (xomashyo tovarlaridan tashqari) eksport kontraktisiz inyoys asosida eksport qilish huquqiga ega.

19. Eksport qiluvchilar tovarlar (ishlar va xizmatlar) eksportini, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha ayrim tovarlardan tashqari, Internet tarmog‘ining elektron savdo maydonchalari vositasida eksport kontrakti tuzmasdan va tovarlar (ishlar va xizmatlar) eksporti uchun bank vositachilik haqi olinmasdan amalga oshirish huquqiga egadirlar.

20. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo operatsiyalari monitoringini amalga oshirish bo‘yicha davlat bojxona va soliq xizmatlari organlari hamda tijorat banklari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21. Davlat bojxona xizmati organlari, tijorat banklari va TSOYEATga ulangan boshqa idoralar o‘z vakolatlari doirasida tizimdagi mavjud axborotni ruxsat berilmagan foydalanishdan, ma‘lumotlarni buzishdan yoki tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga yoki davlatga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa xatti-harakatlardan himoya qilish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni ko‘rishlari kerak.

Davlat bojxona xizmati organlari, tijorat banklari va TSOYEATdagi mavjud ma‘lumotlardan foydalanadigan boshqa idoralarning rahbarlari va boshqa xodimlari mazkur ma‘lumotlarni oshkor qilish, ulardan shaxsiy maqsadlarda yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari

yo'lida foydalanish, shuningdek, shu jumladan, axborotni himoya qilishning belgilangan qoidalarini buzish oqibatida uchinchi shaxslarning ma'lumotlarni olishiga imkoniyat yaratish huquqiga ega emas.

TSOYEATdagi mavjud axborotni himoya qilishning belgilangan qoidalari buzilganligi, ulardan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga yoki davlatga zarar yetkazilishiga olib kelgan shaxsiy maqsadlarda yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanganligi uchun idoralarning aybdor rahbarlari yoki boshqa xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

TSOYEATdan foydalanuvchining tashabbusi yoki taklifi bilan TSOYEATni dasturiy ta'minlashga o'zgartirishlar kiritish yoki hisobot shakllarini joriy etish zarur bo'lgan taqdirda, TSOYEATni dasturiy ta'minlashga o'zgartirishlar va hisobot shakllari mazkur o'zgartirishlar tashabbuskori bo'lgan idora hisobidan moliyalashtiriladi.

Bunda TSOYEATga kiritiladigan o'zgartirishlar yoki hisobot shakllari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank hamda TSOYEATning huquqiy egasi bo'lgan davlat organi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirilishi lozim.

#### **4-bob. Tashqi savdo operatsiyalarining amalga oshirilishini nazorat qilish tartibi**

22. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo kontraktlari va inyoyslari monitoringi valyutani nazorat qiluvchi organlar va tijorat banklari tomonidan TSOYEAT orqali amalga oshiriladi. Bunda ushbu organlar va tijorat banklari o'rtasida TSOYEATda shakllangan ma'lumotlarni o'zaro talab etish taqiqlanadi.

23. Tovarlarini respublikaga olib kirish va "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimiga rasmiylashtirish, shuningdek, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko'rsatish yoxud ular uchun to'langan pul mablag'larini qaytarish muddati import kontraktlari bo'yicha to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 180 kalendar kundan ortiq bo'lmasligi kerak.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan loyihalar doirasida tuzilgan kontraktlar bo'yicha yoki kontraktlar Mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimlarni amalga oshirish doirasida Boshqaruvchi qo'mita tomonidan tasdiqlangan taqdirda — import kontraktlarida belgilangan muddatlardan oshmasligi lozim.

24. Eksport kontrakti bo'yicha tushum tushishi yoki tovarlarni qayta olib kirish muddati tovarlarga nisbatan - "eksport" bojxona rejimi bo'yicha bo'yicha bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan va xizmatlarga (ishlarga) nisbatan — bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangan sanadan boshlab 180 kundan oshib ketmasligi kerak.

Bunda yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) ta'siri yuzaga kelgan holatda xorijiy valyutadagi tushumning tushishi muddati ushbu ta'sir yuz bergan davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan, yengib bo'lmaydigan kuchning amal qilishi davriga uzaytiriladi.

25. Eksport kontraktlari bo'yicha to'lovlar vakil banklar orqali amalga oshirilgan va vakil bankning bank vositachilik haqi eksport qiluvchining hisob raqamiga tushuvchi mablag'lar hisobiga to'lanadigan hollarda, u debitorlik qarz sifatida hisobga olinmasligi, balki eksport qiluvchi balansining xarajat qismida hisobga olinishi kerak.

Avans to'lovlar bo'yicha mablag'lar qaytarib berilganda yoki vakil bankning bank vositachilik haqi import qiluvchining mablag'lari hisobiga to'langanda import kontraktlari bo'yicha tovarlar to'liq yetkazib berilmagan hollarda, u debitorlik qarz sifatida hisobga olinmasligi, balki import qiluvchi balansining xarajat qismida hisobga olinishi kerak.

26. Xizmatlar eksportini amalga oshiruvchi va import qiluvchining mamlakatida ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlardan (foydadan) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar to'lagan eksport qiluvchilar o'zining tijorat bankiga ushbu soliqlar chet elda to'langanligi to'g'risidagi tasdiqnomani taqdim etadilar. Bunda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'langan summa kontrakt bo'yicha debitorlik qarz sifatida hisobga olinmaydi.

Ushbu soliqlar asossiz to'langanligi, ularning kamaytirilganligi yoki qaytarilganligi holatlari aniqlangan taqdirda kontrakt bo'yicha debitorlik qarz tiklanishi kerak.

27. Chet eldan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo‘l qo‘ygan eksport qiluvchilar, shuningdek, “erkin muomalaga chiqarish (import)” bojxona rejimida tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirishni, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatishni 30 bank kundan ortiq ta‘minlamagan import qiluvchilar (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun — 60 bank kuni) belgilangan muddatlar tamom bo‘lgandan keyin:

180 kungacha kechikkanda — tushmagan valyuta mablag‘lari yoki “erkin muomalaga chiqarish (import)” bojxona rejimida rasmiylashtirilmagan tovarlar, shuningdek, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar summasining 10 foiziga teng miqdorda;

180 kundan 365 kungacha kechikkanda — tushmagan valyuta mablag‘lari yoki “erkin muomalaga chiqarish (import)” bojxona rejimida rasmiylashtirilmagan tovarlar, shuningdek, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar summasining 20 foiziga teng miqdorda qo‘shimcha;

365 kundan ortiq kechikkanda — tushmagan valyuta mablag‘lari yoki “erkin muomalaga chiqarish (import)” bojxona rejimida rasmiylashtirilmagan tovarlar, shuningdek, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar summasining 70 foiziga teng miqdorda respublika budjeti daromadiga qo‘shimcha jarima to‘laydilar.

Quyidagi hollarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlik uchun jarima qo‘llanilmaydi:

jarima qo‘llash haqidagi arizada ko‘rsatilgan kontraktlar bo‘yicha “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq to‘liq yoki qisman repatriatsiya qilingan aktivlar summasiga nisbatan;

asbob-uskunalar va (yoki) butlovchi buyumlar yetkazib berish bo‘yicha import kontraktlari shartlarida asbob-uskunalar va (yoki) butlovchi buyumlarni yetkazib berish muddati ularning texnik xususiyatlari va o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda 180 kalendar kundan ortiq belgilangan bo‘lsa;

chet eldagi korxonaga nomiga olib chiqilgan hamda transportda tashish va saqlash jarayonida eksportchiga va chet eldagi korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra yaroqsiz bo‘lib qolgan yoki import qiluvchi davlat organi tomonidan musodara qilingan tovarlarga tegishli vakolatli organning ekspertizasi dalolatnomasi va (yoki) tovarlar turgan mamlakat bojxona organining bojxona nazorati ostida ularning yo‘q qilinganligi yoki musodara qilinganligi to‘g‘risidagi tasdiqnomasi taqdim etilganda;

ayni bir qarzdorlik predmeti va tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) amaldagi eksport va import hajmi bo‘yicha takroriy jarimalar.

Yuridik shaxs — O‘zbekiston Respublikasi rezidentining oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlari summasining 20 foizidan ortiq bo‘lgan jarima sanksiyalarini undirish unga undiriladigan summani undirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 6 oy mobaynida to‘lovlarni har oyda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonini bergan holda amalga oshiriladi.

28. Chet eldan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo‘l qo‘ygan eksport qiluvchilarga, shuningdek, “erkin muomalaga chiqarish (import)” bojxona rejimida tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirishni, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishni ta‘minlamagan import qiluvchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan jarima qo‘llash to‘g‘risida talabnoma (keyingi o‘rinlarda — talabnoma) yuboriladi.

Talabnoma yozma yoki elektron shaklda rasmiylashtiriladi va unda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- xo‘jalik yurituvchi subyektning to‘liq nomi;
- soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;
- talabnoma sanasi, raqami;
- tashqi savdo kontrakti identifikatsiya raqami;
- kontrakt turi;
- xorijiy sherik nomi, davlati;
- valyuta turi;
- muddati o‘tgan debitorlik qarz yuzaga kelgan sanasi, summasi;
- Markaziy bank tomonidan belgilangan valyuta kursi va sanasi;



muddati o'tgan debitorlik qarzning so'mdagi qiymati;  
talabnoma olinganidan so'ng xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ko'riladigan choralar va muddati;

muddati o'tgan debitorlik qarz bartaraf etilmagan taqdirda qo'llaniladigan choralar.

Talabnoma xo'jalik yurituvchi subyekt yoki uning vakiliga olganligi va olingan sanani tasdiqlovchi usulda topshirilishi lozim, soliq to'lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo'lgan taqdirda, u orqali yuborilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan talabnoma pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda u jo'natilgan kundan e'tiboran besh kun o'tganidan so'ng topshirilgan, shaxsiy kabinet orqali yuborilganda esa keyingi ish kuni xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qabul qilib olingan kun deb hisoblanadi.

Talabnomada jarima summasi uni jo'natish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta kursi bo'yicha so'mda hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt davlat soliq xizmati organiga talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kun muddatda tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorliklarning bartaraf etilganligi yoki jarima summasi ixtiyoriy ravishda to'lab berilganligi haqidagi ma'lumot(lar)ni yozma yoki elektron shaklda tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorliklar ixtiyoriy ravishda to'lab berilmagan yoxud to'lashni rad etgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi jarima qo'llash haqidagi ariza bilan sudga murojaat qiladi.

Ariza kiritish sanasida xorijiy valyuta kursi o'zgargan taqdirda, talabnomada ko'rsatilgan summa qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Arizaga tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali qayd qilingan kontraktlar orqali muddati o'tgan debitor qarzdorlik mavjudligi haqidagi ma'lumotnoma, pochta xarajatlari to'langanligi va arizaning ko'chirma nusxasi xo'jalik yurituvchi subyektga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, talabnoma va uning yuborilganligi haqida dalillar ilova qilinadi.

Arizada ko'rsatilgan tashqi savdo kontraktlari bo'yicha to'liq miqdorda valyuta mablag'larining tushishi yoki tovarlarning respublikaga olib kirilishi hamda "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimida rasmiylashtirilishi, ishlar bajarilishi va xizmatlar ko'rsatilishi ta'minlangan taqdirda:

jarima qo'llash masalasi sudga ko'rib chiqilayotgan paytda — arizani qanoatlantirish rad etiladi;

sud hujjati qonuniy kuchga kirmagan vaqtda — ijroga qaratilmaydi;

moliyaviy jarima qo'llash to'g'risidagi sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan so'ng 90 kalendar kun ichida va uni shu muddat ichida ijro etish paytida — ish yuritish tugatiladi va majburiy undirish bo'yicha ko'rilgan barcha choralar bekor qilinadi (davlat soliq xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan);

undirilgan jarimalar xo'jalik yurituvchi subyektning arizasi asosida bank hisobvarag'iga qaytarib beriladi. Bunda undirilgan mablag'lar:

— O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi depozit hisobvarag'ida saqlanayotgan bo'lsa, Majburiy ijro byurosi tomonidan;

— O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga o'tkazilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda hisobga olish amalga oshirilganidan keyin ortiqcha to'langan summa sifatida e'tirof etilib, davlat soliq xizmati organi xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.

Jarima qo'llanilgandan keyin tushgan valyuta mablag'lari yoki respublikaga olib kirilgan hamda "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimida rasmiylashtirilgan tovar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar summasi talabnomada ko'rsatilgan valyuta kursi bo'yicha so'mda hisob-kitob qilinadi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng davlat soliq xizmati organi xo'jalik yurituvchi subyektning shaxsiy varaqasida qo'llanilgan jarima summasini hisobga oladi.

Hisobga olingan jarima summasi soliq qarzi sifatida e'tirof etilib, belgilangan tartibda majburiy undiruv choralari ko'riladi.

29. Tashqi savdo operatsiyalarida xorijiy sheriklar tomonidan oldindan o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tovarlarni "eksport" bojxona rejimiga rasmiylashtirish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko'rsatish, yoki O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tovarlar, shuningdek, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali pul mablag'larini o'tkazish muddati 365 kundan oshib ketmasligi kerak.

Bunda ushbu muddat tovarlarni "eksport" bojxona rejimiga rasmiylashtirish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko'rsatish xorijiy sheriklar tomonidan o'tkazilgan pul mablag'lari eksport qiluvchilarning xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarida qayd etilgan kundan boshlab, O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali pul mablag'larini o'tkazish xorijiy sheriklar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tovarlar "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan, shuningdek bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab hisoblanadi.

30. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, tijorat banklari, budjet tashkilotlari, budjet mablag'lari oluvchilar, G'aznachilik bo'linmalari va davlat bojxona xizmati organlari tegishli axborot TSOYEATga o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishi uchun javob beradilar.

31. Davlat bojxona xizmati organlari:

tovarlarning kelib tushishi yoki yuklab jo'natilishi to'g'risidagi bojxona yuk deklaratsiyalari ma'lumotlari TSOYEATga o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishi uchun javob beradilar, tovarlarni olib kirish va olib chiqish bo'yicha ma'lumotlarni hamda ular bo'yicha amalga oshirilgan bojxona to'lovlarini tahlil etadilar, shuningdek, bojxona yuk deklaratsiyalari ma'lumotlarining elektron bazasi TSOYEATga o'z vaqtida qo'shilishini ta'minlaydilar;

tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga noqonuniy olib kirish mexanizmlarini aniqlash hamda barham berish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi boshqa jinoyatlarni ochish bo'yicha tezkor-tahliliy va qidiruv chora-tadbirlari o'tkazilishini ta'minlaydilar.

32. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tovarlarning bojxona qiymati belgilanishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Monitoring natijalari hamda muqobil manbalardan olingan ma'lumotlar asosida narx ma'lumotlari byulleteni shakllantiriladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xabardorligini hamda bojxona tartibotlarining samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida har chorakda Davlat bojxona qo'mitasining rasmiy sayti va O'zbekiston Respublikasining ochiq ma'lumotlar portaliga elektron shakli joylashtirib boriladi.

33. Narx ma'lumotlari byulleteni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan kelishiladi.

Bojxona organlari narx ma'lumotlari byulletenidan O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida belgilangan tartibda tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda va nazorat qilishda foydalanadi.

34. Tovarlarning narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarning muqobil manbalari sifatida ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki yetkazib beruvchilarning rasmiy e'lon qilinadigan ma'lumotnomalari, byulletenlari, birja kotirovkalari, prays-varaqlardan, ular uyushmalari yoki birlashmalarining yig'ma narx ma'lumotnomalaridan, tovarlarni ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarining, ularning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan dilyerlari yoki distribyutorlarining ma'lumotlaridan, shuningdek, narxlar konyunkturasini xolis shakllantiradigan umumiy foydalaniladigan narx to'g'risidagi ma'lumotlarning boshqa ishonchli manbalaridan foydalanish mumkin.

35. Tovarlarni (ishlar, xizmatlar) eksportidan tushum qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tushmaganligi yoki to'liq tushmaganligi yoxud import bo'yicha tovarlar to'liq tushmaganligi (ishlar va xizmatlar bajarilmaganligi) (avans to'lovi qaytarilganligi) holatlari to'g'risidagi axborot TSOYEATda shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq va bojxona xizmatlari organlari tegishli chora-tadbirlar ko'rish uchun TSOYEAT ma'lumotlaridan foydalanadi.

## 5-bob. Yakunlovchi qoida

36. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi  
nizomga  
1-ILOVA

### Tashqi savdo kontraktlari va invoyslarga identifikatsiya raqamlarini berish

#### TARTIBI

1. Ushbu Tartib tashqi savdo kontraktlari va invoyslarga identifikatsiya raqamlari berish qoidalarini belgilaydi.

2. Tashqi savdo kontraktlari va invoyslarga identifikatsiya raqamlari xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga (keyingi o'rinlarda — TSOYEAT) ushbu Tartib talablariga muvofiq zarur axborotni kiritish orqali beriladi.

3. TSOYEATda identifikatsiya raqamlari quyidagi tartibda shakllantiriladi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
A									B								
					19	20	21	22	23	24	25	26	27				
					V		G		D								

“A” qismi 9 ta raqamdan iborat bo'lib, tashqi savdo kelishuviga oid hujjat bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirayotgan tijorat bankining STIR ko'rsatiladi. Tashqi savdo kontrakti birja (yarmarka)da tuzilgan taqdirda, “A” qismida ushbu birja (yarmarka)ning STIR ko'rsatiladi.

“B” qismi STIRni (import qiluvchi/eksport qiluvchi — O'zbekiston Respublikasi rezidentining) ifoda etadigan 9 ta raqamdan iborat bo'ladi.

“V” qismi 2 ta raqamdan iborat bo'lib, yilning oxirgi 2 ta raqami ko'rsatiladi (masalan: 2019 bo'lsa, unda 19 ko'rsatiladi).

“G” qismi tashqi savdo operatsiyalarini ifoda etadigan 2 ta raqamdan iborat bo'ladi, ya'ni:

01 — eksport kontrakti;

02 — import kontrakti;

03 — barter kontrakti;

04 — markazlashtirilgan eksport kontrakti;

05 — markazlashtirilgan import kontrakti;

06 — import birja (yarmarka) kontrakti;

07 — eksport birja (yarmarka) kontrakti;

08 — eksport-konsignatsiya kontrakti;

09 — respublika hududida eksport kontrakti;

10 — Internet jahon axborot tarmog'i orqali dasturiy ta'minot eksporti;

11 — qayta ishlash (respublika hududida) bo'yicha eksport kontrakti;

12 — qayta ishlash (respublikadan tashqarida) bo'yicha import kontrakti;

13 — Internet jahon axborot tarmog'idagi savdo maydonchalari orqali eksport kontrakti;

14 — invoys asosida eksport;

15 — invoys asosida import.

D qismi kontrakt yoki invoysning TSOYEAT tomonidan avtomatik ravishda beriladigan tartib raqamini ifoda etadigan 5 ta raqamdan iborat bo'ladi.

4. TSOYEATda tashqi savdo kontraktlari va invoyslarning tartib raqamlari har yilning boshida 00001 raqami bilan boshlanadi. Bunda identifikatsiya raqamlari har bir kontrakt va invoys uchun alohida beriladi. Tashqi savdo kontrakti birjada (yarmarkada) tuzilgan bo'lsa, identifikatsiya raqami birjada (yarmarkada) ro'yxatga olish jurnali (reyestri) bo'yicha beriladi.

5. Tashqi savdo kontraktlari va invoyslarning identifikatsiya raqamida ushbu Tartibda nazarda tutilmagan ajratish belgilari (kasr, tire, nuqta, vergul va boshqalar) qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi  
[nizomga](#)  
 2-ILOVA

### Tashqi savdo operatsiyalari ustidan monitoring va nazorat olib borish

#### SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich		<b>Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga (TSOYEAT):</b>	
	1. Xo'jalik yurituvchi subyekt*	1. Tuzilgan tashqi savdo kontraktlari va invoyslarni;	1. Tashqi savdo operatsiyalari boshlanguniga qadar
	2. Birja (yarmarka)	2. Birja (yarmarka)da tuzilgan kontraktlarni kiritish.	2. Kontrakt birja (yarmarkada) tuzilgandan so'ng 1 ish kuni mobaynida
2-bosqich	<i>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK (qonunchilikda belgilangan hollarda)*</i>	<i>Import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish.*</i>	<i>20 kun ichida*</i>
		<b>TSOYEATga valyuta va tovarlar xarakati to'g'risidagi ma'lumotlarni:</b>	
	1. Tijorat banklari, G'aznachilik bo'linmalari, tovar-xomashyo birjasi	1. Kontrakt va invoyslar bo'yicha valyuta mablag'larning harakati to'g'risida axborotlarni;	1. Hisob-kitoblar amalga oshirilganda onlayn tarzda kelib tushadi

	2. Davlat bojxona xizmati organlari	2. Kontrakt va invoys bo'yicha bojxona yuk deklaratsiyasi ma'lumotlarini;	2. Tovarlar tushganda yoki yuklab jo'natilganda onlayn tarzda kelib tushadi
	3. Xo'jalik yurituvchi subyektlar	3. Ishlar va xizmatlar dalolatnomasini kiritish.	3. Dalolatnoma tuzilgan kunda 1 kun ichida
3-bosqich	Valyutani nazorat qiluvchi organlar va tijorat banklari	Amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalari ustidan taalluqliligi bo'yicha o'z vakolati doirasida monitoring va nazoratni amalga oshirish.	Doimo
4-bosqich	Davlat bojxona xizmati organlari va tijorat banklari	Bojxona va valyuta qonunchiligi, hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi buzilishi alomatlari aniqlanganda axborotni soliq organlariga taqdim etish.	Holatlar aniqlanganda har oy yakuni bo'yicha

\* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-son qarorida belgilan tartibda kontraktlar ekspertizadan o'tkaziladi.

Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi  
nizomga  
3-ILOVA

### **Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga kiritiladigan ma'lumotlar to'g'risidagi**

#### **AXBOROT**

1. Kontrakt bo'yicha umumiy axborot\*:  
import qiluvchi (eksport qiluvchi)ning nomi va rekvizitlari, shu jumladan, STIR;  
xorijiy sherikning nomi va uning rekvizitlari;  
kontraktning sanasi va tartib raqami;  
kontraktning ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq turi;  
kontraktning predmeti (tovar yoki ishlar va xizmatlar);  
kontraktning umumiy summasi;  
kontraktning valyutasi;  
to'lov valyutasi;  
tovarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartlari va muddatlari;  
to'lov shartlari;  
qo'shimcha bitimlarning sanasi va tartib raqami;  
bajarilgan ishlar va/yoki ko'rsatilgan xizmatlarning dalolatnomalari;  
kontrakt bo'yicha operatsiyalarni tugallash.  
Bunda dalolatnoma haqidagi axborotga quyidagilar kiritiladi:  
dalolatnoma raqami va sanasi;  
ko'rsatilgan ishlar va xizmatlarning turi;  
ko'rsatilgan ishlar va xizmatlarning o'lchov birligi va hajmi;  
ko'rsatilgan ishlar va xizmatlarning qiymati.

2. Invoys bo'yicha umumiy ma'lumot\*:

import qiluvchi (eksport qiluvchi)ning nomi va rekvizitlari, shu jumladan, STIR;

xorijiy sherikning nomi va uning rekvizitlari;

invoysning sanasi va tartib raqami;

invoysning ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq turi;

invoysning predmeti (tovar yoki ishlar va xizmatlar);

invoys summasi;

invoys valyutasi;

3. Birja (yarmarka) kontraktlari Tovar-xomashyo birja va ko'rgazma-yarmarkasi\*\*:

import qiluvchi (eksport qiluvchi)ning nomi va rekvizitlari, shu jumladan, STIR;

xorijiy sherikning nomi va uning rekvizitlari;

kontraktning sanasi va tartib raqami;

kontraktning ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq turi;

kontraktning predmeti;

kontraktning umumiy summasi;

kontraktning valyutasi;

to'lov valyutasi;

qo'shimcha bitimlarning sanasi va tartib raqami;

mablag'lar harakati to'g'risidagi axborot.

4. Mablag'lar harakati to'g'risidagi axborot\*\*\*:

to'lov sanasi va summasi;

to'lov topshirig'ining sanasi va tartib raqami;

akkreditiv ochish sanasi, tartib raqami, summasi va muddati hamda uning bajarilishi

to'g'risidagi axborot;

berilgan kafolatning sanasi, tartib raqami, summasi va muddati, kafilning nomi va kafolat

bajarilganligi to'g'risidagi axborot;

berilgan sug'urta polisining sanasi, tartib raqami, summasi va muddati, sug'urta

kompaniyasining nomi;

kontraktlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar;

debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarish;

jazo jarimalari va norezidentning daromadiga soliq to'lash;

xorijiy bankning vositachilik haqi.

5. Tovarlar yuklab jo'natilganligi va tushganligi to'g'risidagi axborot\*\*\*\*:

tovarning nomi va TIF TN bo'yicha kod;

tovarning miqdori;

tovar kelib chiqqan mamlakat;

bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sana va uning tartib raqami;

tovarning faktura, bojxona va statistika qiymati;

bojxona rejimi;

o'lchashning qo'shimcha birligi, kodi (zarurat bo'lganda);

tovarning og'irligi;

tashqi savdo kontrakti va invoys bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt va xorijiy sherik nomi

va rekvizitlari.

\* Ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kiritiladi.

\*\* Tovar-xomashyo birja va ko'rgazma-yarmarkasi tomonidan kiritiladi.

\*\*\* Tijorat banklari tomonidan kiritiladi.

\*\*\*\* Davlat bojxona xizmati organlari tomonidan bojxona yuk deklaratsiyalari rasmiylashtirilgandan so'ng kiritiladi.

Izoh. TSOYEATda tashqi savdo kontraktlarini va invoyslarni ijro etish bilan bog'liq to'ldiriladigan boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

## O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. Vazirlar Mahkamasining “Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2003-yil 30-sentabrdagi 416-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2003-y., 9-son, 92-modda):

a) 1-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 2-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi bojxona yuk deklaratsiyalari asosida ma‘lumotlarning elektron bazasini shakllantiradi hamda tovarlarning kelib tushishi yoki yuklab jo‘natilishi to‘g‘risidagi axborotlarning Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga o‘z vaqtida va to‘g‘ri kiritilishi uchun javob beradi”.

v) 4-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“4. Belgilab qo‘yilsinki, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKda ekspertizadan o‘tkaziladigan va ro‘yxatga olinadigan import kontraktlari bo‘yicha ma‘lumotlarni xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga kiritish ushbu Markazning tegishli xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi”;

g) 5-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

d) 1-ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

e) 2-ilovaning 1-bandini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2014-yil 21-iyuldagi 199-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2014-y., 7-son, 74-modda):

a) 2-bandda:

**ikkinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**uchinchi — beshinchi xatboshilar** tegishli ravishda ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 3<sup>1</sup>-bandning **birinchi** va **to‘rtinchi xatboshilaridagi** “uch” so‘zi “besh” so‘zi bilan almashtirilsin;

v) **ilovada:**

1-bandning **“b” kichik bandi** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

5-bandning **“b” kichik bandi** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-iyuldagi 197-son qarori bilan tasdiqlangan “Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda davlat bojxona xizmati organlariga taqdim etiladigan hujjatlar” ro‘yxatining 1-bo‘limi **2-bandidagi** “uch ming AQSh dollarigacha” so‘zlari “bitta invoys bo‘yicha besh ming AQSh dollarigacha” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. Vazirlar Mahkamasining “Tovarlarni bojxonada elektron shaklda deklaratsiyalash tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 31-iyuldagi 605-son qaror bilan tasdiqlangan Tovarlarni bojxonada elektron shaklda deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risidagi **nizomda:**

a) 4-bandning **to‘qqizinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Elektron deklaratsiya avtomatlashgan tartibda bojxona organlarining axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi yoki tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi bojxona organi xodimlari o‘rtasida taqsimlanadi. Bunda hujjatlarda mavjud ma‘lumotlarning ishonchliligiga deklaratsiyalovchi shaxs javobgardir”;

b) 5-bandning **oltinchi xatboshidagi** “qo‘llashi mumkin” so‘zlari “qo‘llaydi” so‘zi bilan almashtirilsin;

v) 6-bandning **birinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“6. BYuDni to‘ldirish hamda elektron deklaratsiyalarni avtomatik holda ro‘yxatga olish va rasmiylashtirish, shuningdek, taqsimlash tizimi ishlashi tartibi DBQ tomonidan belgilanadi”;

g) 14-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Bojxona organlari xodimlari elektron deklaratsiyalarning o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi uchun shaxsan javob beradilar, bojxona organlarining axborot tizimi tomonidan rasmiylashtirilgan elektron deklaratsiyalar bundan mustasno”;

d) 1-ilovada:

3-bosqich blokining “Tadbirlar” ustuni 3-qismi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Dastlabki tekshiruv natijasida kamchiliklar aniqlanmasa, YaAAT BYuDni rasmiylashtirish uchun qabul qilib, avtomatlashgan tartibda rasmiylashtiradi yoki rasmiylashtirish uchun bojxona xodimlariga taqsimlaydi”;

e) 2-ilovada:

1-pozitsiyaning “Vakolatli organ nomi” ustunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi “Loyiha va import kontraktlarini kompleks ekspertizadan o‘tkazish markazi” DUK” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK” so‘zlari bilan almashtirilsin;

4-pozitsiyaning “Vakolatli organ nomi” ustunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

7.	Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini olib kirish yoki olib chiqish, tranzit qilish, sotib olish, saqlash, olib yurish, tashish, sotish, qurol va uning o‘q-dorilarini kolleksiyalash hamda ko‘rgazmaga qo‘yish uchun ruxsatnoma.	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
----	---	---

9 va 10-pozitsiyaning “Vakolatli organ nomi” ustunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya qo‘mitasi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi 17<sup>1</sup>-pozitsiyasi qo‘shilsin:

17 <sup>1</sup> .	Ekologik sertifikat.	O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi
-------------------	----------------------	--

5. Vazirlar Mahkamasining “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmatini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 16-oktabrdagi 829-son qaroriga 2-ilovada:

a) 3-pozitsiyaning “Vakolatli organning nomi” ustunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 5-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

5.	Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini olib kirish yoki olib chiqish, tranzit qilish, sotib olish, saqlash, olib yurish, tashish, sotish, qurol va uning o‘q-dorilarini kolleksiyalash hamda ko‘rgazmaga qo‘yish uchun ruxsatnoma.	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
----	---	---

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-son qaroriga  
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari**

RO‘YXATI



1. Vazirlar Mahkamasining “Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2000-yil 29-iyundagi 245-son qarorining 4 va 6-bandlari (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2000-y., 6-son, 33-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 9-avgustdagi 189-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2005-y., 8-son, 40-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik yurituvchi subyektlari tomonidan xorijiy mamlakatlardagi ular tashkil etgan savdo uylari, vakolatxonalar, korxonalar orqali, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining xorijiy mamlakatlardagi savdo investitsiya uylari orqali olib chiqilayotgan tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-bandini.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2005-yil 12-avgustdagi 196-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 32-33-son, 251-modda) 2-ilovaning 38-bandini.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish va ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2005-yil 8-sentabrdagi 206-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 34-36-son, 264-modda) 1-ilovaning 45-bandini **“b” kichik bandi**.

5. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2009-yil 12-avgustdagi 230-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 32-33-son, 363-modda) ilovaning 2-bandini.

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2011-yil 25-avgustdagi PQ–1604-son qarori)” 2011-yil 20-oktabrdagi 284-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 42-son, 455-modda) ilovaning 3-bandini.

7. Vazirlar Mahkamasining “Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartibotlarni liberallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2012-yil 30-dekabrda 379-son qaroriga 2-ilovaning (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2003-y., 2-son, 24-modda) 6-bandini **“a” va “b” kichik bandlari**.

8. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida” 2012-yil 13-noyabrdagi PF-4483-son Farmoni)” 2013-yil 9-sentabrdagi 244-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 37-son, 485-modda) 1-ilovaning 36-bandini.

9. Vazirlar Mahkamasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2015-yil 22-maydagi O‘RQ-385-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 8-sentabrdagi 259-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 36-son, 477-modda) ilovaning 2-bandini.

10. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z paxtasanoateksport” xolding kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida” 2015-yil 27-oktabrdagi PF-4761-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z paxtasanoateksport” xolding kompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 28-oktabrdagi PQ-2422-son qarori)” 2015-yil 25-dekabrda 372-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 52-son, 647-modda) 1-ilovaning 5-bandini.

11. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining tuzilmasini maqbullashtirish va uning faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 31-dekabrda PQ-2463-son qarori)” 2016-yil 27-fevralda 57-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 9-son, 91-modda) ilovaning 3-bandini.

12. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-son Farmoni)” 2016-yil 26-dekabrda 414-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 52-son, 604-modda) ilovaning [2-bandi](#).

13. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2017-yil 7-iyuldagi 477-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 28-son, 654-modda) ilovaning [2-bandi](#).

14. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 13-aprelda PF-5012-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 13-aprelda PQ-2887-son qarori)” 2017-yil 14-iyuldagi 499-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 29-son, 693-modda) ilovaning [16-bandi](#).

15. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 18-aprelda PF-5016-son Farmoni)” 2017-yil 16-avgustda 638-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 33-son, 863-modda) 1-ilovaning [26-bandi](#).

16. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 21-iyunda PQ-3077-son qarori)” 2017-yil 23-noyabrda 938-son qaroriga ilovaning [2-bandi](#).

17. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (“Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrda O‘RQ-442-son Qonuni)” 2017-yil 1-dekabrda 960-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 49-son, 1197-modda) ilovaning [5-bandi](#).

18. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatda chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 2-sentabrda PF-5177-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 12-sentabrda PQ-3270-son qarori)” 2018-yil 8-yanvarda 16-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2-son, 27-modda) 1-ilovaning [8-bandi](#).

19. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zi qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag‘batlantirish va raqobatbardoshligini ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 15-dekabrda PF-5286-son Farmoni)” 2018-yil 9-fevralda 102-son qaroriga 1-ilovaning [1-bandi](#).

20. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-fevralda PF-5349-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini

tashkil etish to‘g‘risida” 2018-yil 19-fevraldagi PQ-3549-son qarori)” 2018-yil 20-apreldagi 297-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 16-son, 337-modda) ilovaning **1-bandi**.

21. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son qarori)” 2018-yil 26-iyuldagi 583-son qaroriga ilovaning **1-bandi**.

22. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining xorijiy valyutadagi mablag‘larini samarali boshqarishga yo‘naltirilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2018-yil 6-avgustdagi 620-son qaroriga ilovaning **2-bandi**.

23. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mevasabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 17-oktabrdagi PQ-3978-son qarori)” 2019-yil 13-martdagi 216-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 3-son, 37-modda) ilovaning **2-bandi**.

24. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-son Farmoni)” 2019-yil 30-martdagi 269-son qaroriga ilovaning 3-bandi **“b” kichik bandi**.

25. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 5-fevraldagi PQ-4160-son qarori)” 2019-yil 10-avgustdagi 661-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 8-son, 179-modda) ilovaning **7-bandi**.

26. Vazirlar Mahkamasining “Donni qayta ishlash korxonolari va qolipli non ishlab chiqaruvchilarni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 30-sentabrdagi 829-son qaroriga 1-ilovaning **1-bandi**.

27. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 30-maydagi PQ-4348-son qarori)” 2019-yil 10-oktabrdagi 860-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 10-son, 246-modda) ilovaning **1-bandi**.

28. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 15-martdagi PF-5690-son Farmoni)” 2019-yil 21-oktabrdagi 886-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 10-son, 258-modda) ilovaning **3-bandi**.

29. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4126-son qarori)” 2019-yil 19-dekabrdagi 1014-son qaroriga ilovaning **15-bandi**.

*(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.05.2020-y., 09/20/283/0587)*